

## **O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA TA’LIM VOSITALARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI**

**Yuldasheva Shaxlo Shukurlaevna,**  
O‘zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari nomzodi  
[shahlondpi@gmail.com](mailto:shahlondpi@gmail.com).  
ORCID ID: 0000-0001-9797-8635

***Annotatsiya:** O‘zbekistonda 2018-yildan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini amalga oshirish masalasi hal qilinmoqda. Konsepsiyada oliy ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalarning inson va jamiyat faoliyatining barcha jabhalariga jadal tatbiq etilishi o‘zbek tilini o‘qitish metodlariga yondashuvlarni ham o‘zgartirib, o‘zbek tilini o‘qitish paradigmasini takomillashtirish zaruratini oshirmoqda. Maqolada ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda o‘zbek tilini o‘qitishda ta’lim vositalarining raqamli transformatsiyasi masalasi yoritib berilgan. Unda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili, sayt va platformalar tahlili, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini pedagogik kuzatish, ma’lumotlarni qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari o‘quv jarayonida bakalavriat, magistratura va doktorantlarni tayyorlash tizimida o‘zbek tilini o‘qitishning muqobil dasturlarini ishlab chiqish hamda ilmiy izlanishlar olib borishda, o‘quv adabiyotlarini yaratishda namuna bo‘la oladi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim, raqamli transformatsiya, Liveworksheets, Quizziz, LearningApps.*

### **Kirish**

Axborot asri, raqamli texnologiyalar katta sifat o‘zgarishlariga, ta’lim shakllarining xilma-xilligiga olib kelmoqda. Binobarin, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini hozirgi zamon talablari darajasiga muvofiqlashtirish tez yuz beradigan jarayon emas. Bu masalalar oliy ta’lim infrastrukturasi bilan, eng muhimi esa ta’lim oluvchi kasbiy faoliyati uchun zarur fanlar va uning ta’lim mazmuni bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanadi. Zamonaviy ibora bilan aytganimizda, ta’lim kontentini yaratish masalasi diqqat markaziga qo‘yiladi. Fan o‘qituvchisida ta’lim kontentiga ana shunday munosabat paydo bo‘lmas ekan, an’analar asralib, shu bilan birga u boyitib borilmas, unga milliy ruh berilmas ekan, ta’limning jozibadorligi haqida kuyunish befoyda. Darhaqiqat, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasining amalga oshirilishi interaktiv sinf doskalari, planshetlar va boshqa texnikalardan foydalaniladigan taraqqiylashayotgan ta’lim muassasalariga, tezkor internet xizmatidan tashqari, birinchi navbatda mazkur texnologiyalar uchun munosib kontent yaratishga daxldor.

### **Asosiy qism**

XXI asrda raqamlashtirish jahon ijtimoiy rivojlanishining yangi tendensiyasi sifatida qaralmoqda. Bundan 20-30 yil oldin kompyuterni kundalik foydalanish darajasida bilish savodxonlikning eng yuqori darajasi hisoblanardi, ammo raqamli asr mezonlariga ko‘ra, bu savodli inson uchun yetarli bo‘lmay qoldi. Davrimizda raqamli texnologiyalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay oladigan va axborotni tahlil qilish, tizimlashtirish, qayta ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kompetentli shaxs yuksak qadrlanadi. O‘zbekistonda 2018-yildan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini amalga oshirish masalasi hal qilinmoqda. Konsepsiyada oliy ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalarning inson va jamiyat faoliyatining barcha jabhalariga jadal tatbiq etilishi o‘zbek tilini o‘qitish metodlariga yondashuvlarni ham o‘zgartirib, o‘zbek tilini o‘qitish paradigmasini takomillashtirish zaruratini oshirmoqda.

Dunyoda ta‘lim industriyasi va bozori keng quloq ochib rivojlanmoqda. Birgina ingliz tili misolida aytish mumkinki, bu tilda dunyoning 110dan ortiq davlatida 400 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Bu raqamlar kundan kunga ortib bormoqda. Talab va ehtiyojlar ingliz tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasini ham rivojlantirmoqda. Binobarin, Internet va raqamli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish butun dunyo bo‘ylab til ta‘limida o‘qituvchilarga va o‘rganuvchilarga mutlaqo yangi vazifalar va imkoniyatlarni taqdim etadi [Alakrash, Hussien Mohamad, and Norizan Abdul Razak, 2021)]. Garchi ta‘lim jarayoniga elektron-hisoblash texnikasini joriy qilish Sobiq Ittifoqda rasman 1985-yildan boshlangan bo‘lsa ham [Budensev, 2020], bu jarayonni ilmiy tadqiq qilishga 2000-yillardan kirishilgan bo‘lib, kompyuter texnologiyalari, axborot texnologiyalari, raqamli ta‘limning psixologik va pedagogik masalalari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning turli jihatlari И.В.Роберт [robert-school.ru], А.В.Хуторской [khutorskoy.ru], В.А.Трайнев, И.В.Трайнев [Traynev, 2004], Е.С.Полат [Polat, 2010] kabi rus olimlari tomonidan o‘rganilgan. Bu masala til o‘qitish muammosi bilan uzviylikda muhim tadqiqotlar doirasida o‘rganilmoqda. O‘zbekistonda ham o‘zbek tilini mamlakatda va xorijda rivojlantirish, nufuzini oshirishga qaratilgan til siyosatining mustahkamlanayotganligi o‘zbek tilini o‘qitish, o‘rgatish ishlarini yangi oqimga solish zaruriyatini paydo qildi. O‘zbekistonda raqamli ta‘limni tashkil etish, axborot texnologiyalarini, o‘qitish uslublarini qo‘llashning didaktik va metodik masalalari A.Abduqodirov, A.Pardayev [Abduqodirov, 2009], R.H.Hamdammov, U.SH.Begimkulov, N.I.Taylaqov [Hamdamov, 2010], M.E.Mamarajabov

[Mamarajabov, 2022] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda yoritilgan. Mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi [O‘R VMQ-475] raqamli texnologiyalarni ta‘lim jarayoni bilan integratsiyalashda muhim qadam bo‘ldi. Darhaqiqat, *Quizziz, Kahoot, Liveworksheets, LearningApps, Quizlet* kabi konstruktorlar va ularni til o‘rgatishda viktorina va o‘yin texnologiyalari bilan integratsiyalash, yakka va guruh ishini tashkil qilish, o‘rganuvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish bo‘yicha ish tajribalar hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari (S.E.Eaton[Eaton, 2010], K.B.Grzeszczyk [Grzeszczyk, 2016], Ke Li, Peterson va Qiao Wang [Ke Li, 2022], Y.P.Mandasari, Y.Wulandar [Mandasari, Wulandar, 2022], S.Bećirović, A.Brdarević-Čeljo, H.Delić [Bećirović, 2021], T.V.Nikishina [Nikishina, 2020], Y.A.Mamaeva [Mamaeva, 2020], Y.A.Gorlova [Gorlova, 2021], V.Y.Yevdokimova, O.A.Kirillova, Y.A.Jdanova [Yevdokimova, 2022]) bilan tanishish dunyoda tillarni o‘qitish jarayoniga tatbiq qilinayotgan onlayn konstruktorlarni o‘rganib chiqishni, fan o‘qituvchilarini ularning xususiyatlari bilan tanishtirish zaruriyatini paydo qiladi. U.Jumanazarov tadqiqotida “raqamli ta‘lim – yangi-yangi texnologiyalar, platformalar va interfaol ta‘lim metodlarini ishlab chiqish hamda ularni bugungi hayotga joriy etish orqali mavjud kundalik ta‘lim mazmunini o‘zgartirish, mutlaqo yangi ta‘lim tizimiga ko‘chirish”, – degan ilmiy g‘oya ilgari surilgan. “Raqamli ta‘lim bu – axborot, jumladan, personal axborotdan foydalanish hisobiga ta‘lim ishtirokchilari, ya‘ni “ta‘lim oluvchilar” va “ta‘lim beruvchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish, uning o‘ziga xos xususiyatini ifodalovchi yangicha tizimdagi ta‘limdir”, degan nazariy xulosa ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan [Jumanazarov, 2021]. “Raqamli iqtisodiyot davridagi o‘zgarishlar – transformatsiyaga tayyor bo‘lmaganlarga shafqatsiz bo‘lgan global inqilobiy texnologiya” [Bobrovnikov, 2018] aksariyat hollarda an‘anaviy metodikaning o‘zi noo‘rin foydalanilayotganini, bu holat esa deyarli “zanglagan” o‘qitish metodikasini paydo qilganligini namoyon qilib turibdi. O‘rganishning eng qiyin qismi yangi g‘oyani o‘zlashtirish emas, balki eskisidan voz kechishdir [Tood Rooz, 2018]. Binobarin, raqamli texnologiyalar mashq va topshiriqlardan iborat til ta‘limini jozibali qiladi. Aksariyat hollarda sinf/auditoriyada raqamli vositalardan foydalanish talabi qo‘yilsa, sinfxona/auditoriyalarning eng so‘nggi rusumdagi axborot vositalari, qurilmalar bilan jihozlanmaganligi haqida e‘tirozli fikrlar aytiladi. Vaholanki, sinfxonalar raqamli qurilmalar – aqlli doskalar yoki televizor, kompyuter, planshet, aqlli telefon va aqlli soatlar bilan jihozlanmaganda ham o‘qitishni raqamlashtirish imkoniyati bo‘ladi, o‘qituvchining yoki o‘quvchining shaxsiy qurilmalaridan, ya‘ni **BYOD (bring your own device: qurilmangizni olib keling)**

texnologiyalaridan foydalanish O‘zbekistonda ham, rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham mavjud. Raqamli resurslar krossvord, rasmlar, qiziqarli topshiriqlar, testlar yaratishni bir zumda uddalashi, bir nechta vazifalarni bajara olsa ham, qurilma, masalan, kompyuter yoki qo‘l telefoni o‘qituvchi vazifasini to‘liq bajara olmaydi, balki uning vazifalarini to‘ldiradi. O‘qituvchi o‘z darsiga mos dasturlarni, didaktik materiallarni, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni tanlaydi, ta‘lim jarayonida ularning ana shu topshiriqlarni bajarishlariga ko‘maklashadi, o‘quvchilarning bilimini va rivojlanishini baholaydi.

O‘zbek tilini o‘qitish vositalarining raqamli transformatsiyasida jahonda raqamli lingvodidaktika erishgan yutuqlar “trend nisha”lar, ya’ni sharqona uy devoridagi bezakli tokcha kabi qiziqish uyg‘otadigan sohalar (nisha – taxmon, javon, tokcha, o‘yiq joy)ni belgilab olish lozim. Jumladan, Quizizz, Liveworksheets, Learningapps onlayn konstruktorlari, Google xizmatlari vositasida viktorinalar, boshqotirmalar, interfaol mashqlar yaratishga qulayligi bilan ta‘lim ishtirokchilarida motivatsiya paydo qiladi.

Ma’lumki, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda mavjud bo‘lgan o‘quv materiallarini: nazariy ma’lumotlar, mashq va topshiriqlarni yoki o‘qituvchi tomonidan yaratilgan tarqatma materiallarni veb-servislar yordamida interfaol mashqlarga aylantirish mumkin. 2015-yildan buyon o‘zbek tilini ona tili va davlat tili sifatida o‘qitish bo‘yicha o‘quv materiallarini, mashqlarni elektronlashtirish, har bir dars uchun ssenariy yaratish, so‘ng ularni mualliflik dasturlarida (Ispring, Hotpotatoes) interfaol mashqlarga aylantirishga ishtiyoqimiz kuchayib, muayyan natijalarga erishgan edik [Yuldasheva, 2016]. Biroq bu jarayon o‘ta mashaqqatli, katta mehnat, vaqt talab qilgan edi. Biz tomonimizdan yaratilgan interfaol mashqlar elektron o‘quv metodik majmuaga jamlangan edi. Biroq ularni internetdagi cheksiz foydalanuvchilarga taqdim qilish imkonsiz bo‘lgan edi. Endilikda esa Liveworksheets kabi onlayn platformalar tufayli an’anaviy ta’limda o‘qituvchi qo‘lida mavjud bo‘lgan turli tarqatma materiallar, mashq va topshiriqlar yoki turli mualliflik dasturlarida tayyorlangan elektron mashqlar, testlarni tubdan o‘zgartirmasdan ularni yangi formatda foydalanish imkoniyati tug‘ildi. Ya’ni shuncha mehnat evaziga yaratilgan didaktik materiallarni yaroqsiz deb tashlab yubormasdan foydalanish mumkin. Muhimi yangi raqamli vositalar tufayli ular innovatsion va foydali ta‘lim vositasiga aylanadi [**Albitova**].

O‘zbek tili ta’limida elektron va raqamli texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan qator tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, onlayn platformalarda raqamli resurslarni ishlab chiqish, qardosh tillardagi guruhlariga

mo‘ljallangan ta’lim kontentlarini yaratish va foydalanish metodikasi bo‘yicha muammolar yechimini kutib turibdi. Tadqiqot davomida fan o‘qituvchilari va talabalarning jarayonga nisbatan qiziqishning ortishi talabalarda o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq va ehtiyojni, ta’lim vositalarini modernizatsiyalash bo‘yicha mavjud holatni chuqur tahlil qilishimizga yordam berdi. Raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy ta’siri yuzasidan tahlillar esa tadqiqotni yana davom ettirish zarur degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ldi. Raqamli qurilmalar va manbalardan foydalanishda qiyinchiliklar va muammolar bo‘lishi muqarrar. Ayniqsa onlayn aloqada uzilishlar bo‘lishi, tarmoqqa ulanish tezligining pastligi, zarur manbaga bog‘lana olmaslik, bepul dasturlarda aloqa vaqtining cheklanganligi va h.k. Shuning uchun onlayn yoki masofadan dars berishda kutilishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarni, “muvaffaqiyatsizliklar”ni oldindan hisobga olish, muqobil ish turlarini ham rejalashtirish taqozo qilinadi.

#### **Xulosa**

1. Avval iqtisodiyot sohasida beqiyos transformatsiyalarni vujudga keltirgan, so‘ng boshqa sohalarga, ular qatori ta’lim tizimiga kirib kelgan raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish beqiyos imkoniyatlari bilan o‘ziga jalb qiladi. Bunday vaziyatda tilni o‘qitish mazmuni va shakllari haqidagi nazariy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish, ta’lim vositalarini takomillashtirish, transformatsiyalash taqozo qilinadi.

2. Raqamli lingvodidaktikaning prinsiplariga tayangan holda qardosh tillardagi guruhlar uchun o‘zbek tilining mavjud ta’lim vositalarini foydalanishda qulaylik, zamonaviy dizayn, nafosat talablariga ko‘ra transformatsiyalashda o‘qituvchilar va talabalar baravar hamkorlik qilishlari zarur.

3. Onlayn konstruktorlarning interfeysida Turkiya turkchasining mavjud bo‘lgani holda, o‘zbek tili o‘rnatilmayotganligi bu borada ham qardoshlarimizning tajribalariga tayanishimiz zarurligini ko‘rsatadi.

4. Til ta’limida mashqlarni raqamli transformatsiyalash bo‘yicha jahonda mavjud tajribalarni o‘rganish, ularni tahlil qilish O‘zbekistonda va xorijda o‘zbek tilini o‘qitishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Liveworksheets kabi onlayn platformalar interfeys tili o‘zbek tilida qo‘llab-quvvatlanmasligi ona tilimizda ham muqobil onlayn platformalarni yaratish ishlarini jadallashtirishni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduqodirov A., Pardayev A. 2009. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan. –145 B.

2. Alakrash, Hussien Mohamad, and Norizan Abdul Razak. (2021). "Technology-Based Language Learning: Investigation of Digital Technology and Digital Literacy" Sustainability 13, no. 21: 12304. <https://doi.org/10.3390/su132112304>.
3. **Albitova N.G. Texnologiya raboti s onlayn servisom Liveworksheets.com.** <https://uchportfolio.ru/mc/show/69367-tehnologiya-raboty-s-onlayn-servisom-liveworksheetscom>
4. Bećirović S, Brdarević-Čeljo A, Delić H. (2021) The use of digital technology in foreign language learning. SN Soc Sci.; 1(10):246. doi: 10.1007/s43545-021-00254-y. Ypub 2021 Sep 27. PMID: 34693306; PMCID: PMC8475434.
5. Binokorlikdan ruscha-o‘zbekcha atamalar lug‘ati (1994). Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati. 224 b.
6. Budansev D.V. 2020. Sifrovizatsiya v sfere obrazovaniya: obzor rossiyskix nauchnix publikatsiy // Molodoy ucheniy. – № 27 (317). – S. 120 –127. – URL: <https://moluch.ru/archive/317/72477/>
7. Bobrovnikov B. 2018. Transformatsiya kak poisk novyx vozmozhnostey. Synergy Executive Forum 2018. <https://12n.ru/video/4733-krok-boris-bobrovnikov-transformaciya-kak-poisk-novyh-vozmozhnostei.html>
8. Eaton, S.Ye. (2010). Global Trends in Language Learning in the Twenty-first Century. Calgary: Onate Press.
9. Gorlova Y.A. (2021). Ispolzovanie servisa dlya podgotovki interaktivnykh zadaniy i dialogovykh trenajyorov «onlinetestpad» v praktike prepodavaniya russkogo yazyka kak inostrannogo // Sovremennye naukoemkie tehnologii. — № 6-2. – S. 306-311.
10. Grzeszczyk K.B. (2016). Using multimedia in the Yenglis’h language classroom. World Scientific News 43(3) 104-157.
11. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. 2010. Ta’limda axborot texnologiyalari. Oliy ta’lim muassasalari uchun / O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. – T. –120 B.
12. Jumanazarov U. 2021. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – Jizzax. – B. 89.
13. Ke Li, Mark Peterson & Qiao Wang (2022). Out-of-school language learning through digital gaming: a case study from an activity theory perspective, Computer Assisted Language Learning, DOI: [10.1080/09588221.2022.2067181](https://doi.org/10.1080/09588221.2022.2067181)
14. Mamaeva Y.A. (2020). Ispolzovanie interaktivnykh rabochix listov pri obuchenii matematike po texnologii «Perevyornutiy klass» // Konsept. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-interaktivnyh-rabochih-listov-pri-obuchenii-matematike-po-tehnologii-perevyornutyy-klass> (data obrasheniya: 03.04.2023).

15. Mamarajabov M.E. 2022. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. – Toshkent. –55 B
16. Mandasari, Y.P., & Wulandar, Y. (2022). Utilizing learningapps. org for vocabulary remote learning (VRL) is it helpful?. In national seminar of PBI (Yenglis’h Language Yeducation) (pp. 355-363).
17. Nikishina T.V. (2020). Sozdanie obuchayushix interaktivnyx uprajneniy pri pomoshchi sovremennyx onlayn-servisov / T. V. Nikis’hina //– № 6(42). – S. 71-78. – YeDN BZJDBN.
18. Yevdokimova V.Y., Kirillova O.A., Jdanova Ye.A. (2022). Vozmojnosti servisov dlya sozdaniya interaktivnix uchebnix materialov // Nauchnoe obozrenie. Pedagogicheskie nauki. – № 6. – S. 10-15; URL: <https://science-pedagogy.ru/ru/article/view?id=2452> (data obraçeniya: 03.04.2023).
19. Polat Y.S., Buxarkina M.Y. 2010. Sovremenniye pedagogicheskiye i informacionniye texnologii v sisteme obrazovaniya: uchebnoye posobiye /. – 3-ye izd., ster. – Moskva: Akademiya. – 364 s.
20. Todd Rouz. 2018. Doloy sredneye! Noviy manifest individualnosti / Todd Rouz; per. s angl. I. Yushyenko. — 2-ye izd., ispr. M.: Mann, Ivanov i Ferber. <https://litresp.ru/chitat/ru/%D0%A0/rouz-todd/doloy-srednee>.
21. Traynev V.A., Traynev I.V. 2004. Informacionniye kommunikacionniye pedagogicheskiye texnologii: (obobshyeniya i rekomendatsii) / Un-t informatizatsii i upr. – Moskva (PIK VINITI). – 279 s.
22. Xutorskiy A.V. Personalniy sayt. <https://khutorskoy.ru/>
23. Yuldasheva Sh. 2023. Liveworksheets onlayn servisida interfaol mashqlarni yaratish imkoniyatlari. O‘zbekiston: til va madaniyat.1(4): 39 – 59.
24. Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova G. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent, Innovatsiya -ziyo. – 2020. B. 329.
25. Yuldasheva Sh. 2021. O‘zbek tili (kechki va sirtqi bo‘lim uchun darslik). – Toshkent, Innovatsiya -ziyo. – 2021. B. 194.
26. Yuldasheva Sh., Zaripov O., Bekjanova M., Smaylova D., Gulmanova Q., Yangiboeva G., Urazboeva D. (2016). 5-sinf uchun Ona tili fanidan yelektron o‘quv-metodik majmua. – Nukus. (guvohnoma: DGU 04136)